



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2024-yil 1-son

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.4.1.

ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.



MUNDARIJA

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. KRIMINOLOGIYA, JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

Ergashev Ikrom Abdurasulovich

SOLIQQA OID MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR VA ULARNI SODIR
ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK 4

Kamalova Dildora Gayratovna

IXTIYORIY QAYTISHNING JINOYAT TARKIBI BELGILARIGA KO'RA TAHLILI14

Ходжаев Шохрух Музаффарович

ПРИНЦИПЫ УГОЛОВНОГО ПРАВА И ИХ РЕАЛИЗАЦИЯ НА ПРАКТИКЕ24

Otegenova Luiza Joldasbayevna

QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLATLARNING
QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI35

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

Tulaganova Gulchexra Zaxitovna

ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISHDA PROKURORNING O'RNI47

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich

TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV: HUQUQNI QO'LLASH MUAMMOLARI61

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.4.1./YBYX9307>
UDC: 342.9(045)(575.1)

SOLIQQA OID MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR VA ULARNI SODIR ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

Ergashev Ikrom Abdurasulovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası professori v.b.,
yuridik fanlar doktori

ORCID: 0000-0002-3924-5182

e-mail: ikromabdurasulovich@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning huquqiy asoslari tizimli tahlil qilingan. Hozirga qadar soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning ilmiy asoslari chuqur tadqiq etilmagan. Shu bois sohaga oid amaliyot kuzatildi. So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik masalasi huquqiy va iqtisodiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagani asoslandi. Soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning nazariy jihatlarini yoritib berishga harakat qilindi. Shuningdek, bugungi kunda dolzarb hisoblangan javobgarliklar toifasi – "soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik" tushunchasining mazmun-mohiyati tahlil etildi. Maqolada xorijiy mamlakatlar qonunchiligi bo'yicha qiyosiy tahlil bilan birga, amaldagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish asosida soliq intizomini buzish holatlarini kamaytirish imkoniyati va yaqin kelajakda qilinishi lozim bo'lgan harakatlar yoritilgan. Muallif ushbu masalalarning huquqiy yechimini topishda soliq intizomini ta'minlash, soliq madaniyatini yuksaltirish va axborot texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish asosiy yo'nalish bo'lishi zarur, degan qat'iy pozitsiyani ilgari suradi. Shuningdek, ushbu sohadagi mavjud muammolar tahlilidan kelib chiqib taklif va tavsiyalarini ilgari suradi.

Kalit so'zlar: soliq intizomi, soliq tizimi, huquqbuzarliklar, soliqlar turlari, soliq majburiyati, soliq to'lovchi, javobgarlik, yuridik javobgarlik, moliyaviy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik, huquqbuzarlik.

АДМИНИСТРАТИВНЫЕ НАЛОГОВЫЕ ПРАВОНАРУШЕНИЯ И ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ИХ СОВЕРШЕНИЕ

Эргашев Икром Абдурасулович,

доктор юридических наук, и. о. профессора

кафедры «Административное и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной научной статье анализируются правовые основы административной ответственности за налоговые правонарушения. Научные основы административной ответственности за налоговые правонарушения до сих пор глубоко не исследованы. Поэтому можно наблюдать в основном отраслевую практику. Кроме того, обосновывается, что в последние годы в Узбекистане вопрос административной ответственности за налоговые правонарушения с юридической и экономической точек зрения недостаточно изучен. Сделана попытка разъяснить теоретические аспекты административной ответственности за налоговые правонарушения. Также анализируется содержание понятия наиболее актуального правонарушения на сегодняшний день – «административная ответственность за нарушение налоговой дисциплины». В статье наряду со сравнительным анализом законодательства зарубежных стран освещается возможность снижения случаев нарушений налоговой дисциплины на основе совершенствования действующего законодательства и действий, которые необходимо предпринять в ближайшее время. Автор придерживается твердой позиции, согласно которой основным направлением поиска правового решения данных вопросов должны стать обеспечение налоговой дисциплины, повышение налоговой культуры и расширение использования информационных технологий. Вместе с тем в статье представлены предложения и рекомендации, основанные на анализе существующих проблем в данной сфере.

Ключевые слова: налоговая дисциплина, налоговая система, правонарушения, виды налогов, налоговая обязанность, налогоплательщик, ответственность, юридическая ответственность, материальная ответственность, административная ответственность, правонарушение.

ADMINISTRATIVE TAX OFFENSES AND RESPONSIBILITY FOR THE COMMITMENT

Ergashev Ikrom Abdurasulovich,
Tashkent State University of Law,
Acting professor of the department of
Administrative and Financial law,
Doctor of Law (DSc)

Abstract. This scientific article analyzes the legal basis of administrative responsibility for tax offenses. The scientific basis of administrative responsibility for tax offenses has not yet been thoroughly studied. There is, in fact, legal practice in this regard. It is substantiated that in recent years in Uzbekistan, the issue of administrative responsibility for tax offenses has not been sufficiently studied from a legal and economic point of view. An attempt is made to clarify the theoretical aspects of administrative responsibility for tax offenses. It also analyzes the content of the concept of “administrative responsibility for violation of tax discipline,” which is the most relevant offense today. The article, along with a comparative analysis of the legislation of foreign

countries highlights the possibility of reducing cases of violations of tax discipline on the basis of improving the current legislation and actions to be taken in the near future. The author adheres to a firm position, according to which the main direction in the search for legal solutions to these issues should be to ensure tax discipline, increase tax culture and expand the use of information technology. At the same time, the article presents proposals and recommendations based on the analysis of existing problems in this area.

Keywords: tax discipline, tax system, offenses, types of taxes, tax liability, taxpayer, responsibility, legal responsibility, financial responsibility, administrative responsibility, offense.

Kirish

O'tgan davr mobaynida mamlakatimiz Prezidenti rahbarligida iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi modeliga asoslangan mustaqil soliq siyosati ishlab chiqilib, uni amalga joriy etish uchun moliya qonunchiligi, xususan, soliq qonunchiligi shakllandi va takomillashtirilib borilmoqda. Ammo qonunchilik qanchalik takomillashtirilmasin, ijtimoiy hayotimizda soliq qonunchiligi normalari, jumladan, savdo va xizmat ko'rsatish qoidalari, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash hamda soliq to'lovchilar tomonidan olingan daromadlarni turli yo'llar bilan yashirish holatlari hamon kuzatilmoqda. Bu esa mamlakatimizning nafaqat iqtisodiyotiga, balki ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Shuning uchun ham, soliq qonunchiligi buzilishi, bu sohalarda ma'muriy javobgarlikni qo'llashda vujudga keladigan qonun buzilishlarning oldini olish va ularga barham berish amaldagi tadbirlar va usullarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo qiladi.

Soliq majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bunda javobgarlik masalasi bir soha bilan emas, balki ma'muriy, moliyaviy va jinoiy javobgarlik sohalari bilan tartibga solinadi.

G'arb fanida soliq to'lovchilarning xatti-harakatlariga nisbatan mavjud yondashuvlar "*homo economicus*" tushunchasi va oqilona tanlovning iqtisodiy modellaridan kelib chiqadi. Unga ko'ra, qonuniy va noqonuniy xatti-harakatlar o'rtasidagi tanlov tegishli harakatning (harakatsizlikning) ijobiy hamda salbiy oqibatlarini oqilona tahlil etish natijalari bilan belgilanadi. Birinchisiga soliqlarni to'lamaslikdan kutilayotgan foyda, ikkinchisiga bog'liq xarajatlar (boqimandalik, jarimalar, reputatsion zararlar va boshqalar kiradi). Ushbu yondashuv, fikrimizcha, haddan tashqari texnologik va sxematikdir. Soliqlarni to'lashning ichki motivatsiyasi turli omillar bilan belgilanishi va har xil huquqiy madaniyatlarda farq qilishi mumkin" [1].

Ma'lumki, ma'muriy javobgarlik, o'z navbatida, soliq qonunchiligini buzganlik uchun qo'llanadigan yuridik javobgarlikning asosiy turlaridan biri sanaladi. Umuman, huquq nazariyasida ma'muriy javobgarlik masalasi bir qator huquqshunos olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi bu masalaga bir xil yondashgan, ya'ni ular ma'muriy javobgarlikni yuridik javobgarlikning alohida turi sifatida

e'tirof etishgan. Biz ham mazkur yondashuvni qo'llab-quvvatlagan holda ma'muriy javobgarlikni yuridik javobgarlikning alohida turi deb hisoblaymiz.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining soliq sohasidagi vazifalari sohada o'rnatilgan ijtimoiy munosabatlarni, inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, mulkning davlat va jamoat tartibini, soliq sohasidagi ijtimoiy adolat, qonuniylikni ta'minlash, ma'muriy huquqbuzarliklarni o'z vaqtida ko'rib chiqish, shuningdek, ularning oldini olish, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashdan iborat.

Huquq nazariyasiga murojaat etganimizda, soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik masalasidagi ba'zi jihatlar bir qator huquqshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, soliq sohasidagi ma'muriy javobgarlik masalalari A.V. Andreyev, O.N. Gorbunova, Y.Y. Gracheva, M.V. Karaseva, Y.A. Kroxina, A.A. Li, A.A. Musatkina, A.A. Rahimova, E.T. Xojiyev, N.I. Ximicheva, Sh. Bilolxo'jayeva, G.T. Xakimov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan.

Mazkur olimlarning ilmiy izlanishlari soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikning quyidagi qator xususiyatlarini belgilab bergan: ma'muriy javobgarlik – ijtimoiy xavfi yuqori bo'lmagan huquqbuzarliklarga nisbatan qo'llanadi; ma'muriy javobgarlik – fuqarolar yoki mansabdor shaxslarning soliq qonunchiligi normalarini buzishida ifodalanuvchi huquqqa xilof harakat yoki harakatsizligining oqibati hisoblanadi.

Y.N. Starilovning fikricha, "Soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik soliq munosabatlarida davlat nomidan harakat qiluvchi davlat organlari va mansabdor shaxslari tomonidan qo'llanadi..." [2].

Sh. Abduqodirov esa "Ma'muriy javobgarlik – ma'muriy huquq me'yorlari bilan tartibga solingan, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan vakolatli davlat organlari hamda mansabdor shaxslari tomonidan protsessual tartibda ma'muriy jazoning qo'llanishidir" [3], deya ta'kidlaydi.

Mahalliy olimlarimizdan E.T. Xojiyev soliq sohasida o'rnatilgan davlat boshqaruvini (tartibini); fuqarolarning huquq va erkinligini; ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlash; ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarining o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishi; bunday huquqbuzarliklarning oldini olish; fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashni [4] soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning asosiy vazifalari sifatida ko'rsatadi.

L.V. Perekrestova, M.V. Vasilyeva va G.Y. Chuxnining qayd etishicha, "Soliq to'lovchi tomonidan soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan holda, qonun hujjatlarini buzgan shaxsga nisbatan soliq javobgarligi choralarini (soliq sanksiyalarini) qo'llashga olib keladigan, soliq to'lovchining budjetga soliq to'lashdan qochish yoki kamaytirishga qaratilgan xatti-harakatlari jinoiy bo'lmagan soliq to'lashdan bo'yin tovlash deb tushuniladi". Ularning fikricha, "Bu muammo soliq to'lovchilarning ma'naviy-psixologik holatida bo'lib, bu mavjud soliqqa tortish tizimiga salbiy munosabat bilan tavsiflanadi. Bunday munosabat ko'p jihatdan ularda soliq madaniyatining pastligi bilan bog'liq. Shuni inobatga olgan holda, soliqqa

oid jinoyatlarning oldini olish bo'yicha asosiy faoliyat aholining soliq madaniyati darajasini oshirish deb e'tirof etilishi lozim" [5].

Umuman, har qanday javobgarlikning faktik asosi qilmish (harakat yoki harakatsizlik) bo'lganidek, ma'muriy javobgarlikning ham faktik asosi ma'muriy huquqbuzarlikdir. Shunga muvofiq, soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik ham soliqqa oid ma'muriy javobgarlikning faktik asosidir. R.T. Berdiyarov va Z.N. Qurbonovlarning fikricha, "Soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik deganda, qonun hujjatlari bilan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan hamda soliq sohasida boshqaruvning o'rnatilgan tartibiga tajovuz qiladigan aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) sodir etilgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tushuniladi" [6].

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida uchta savolga javob berishga harakat qilindi: birinchisi – ma'muriy javobgarlik tushunchasi va u borada xorijiy hamda mahalliy olimlarning fikrlari qandayligi; ikkinchisi – soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning yuridik javobgarlik tizimida tutgan o'rni qandayligi; uchinchisi – soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning alohida xususiyatlari bor-yo'qligi. Mazkur savollarga javob tariqasida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning qator muhim xususiyatlari alohida ta'kidlandi.

Ushbu maqola xorijiy keng tarqalgan usullarni konseptual, nazariy, konstitut-siyaviy-huquqiy va amaliy tushunishga qaratilgan. Tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik barcha soliq to'lovchilar uchun tatbiq qilinadigan umummajburiy qoidalarni buzganlik yoki rioya etmaganlik uchun qo'llanadi. Javobgarlikning mazkur ko'rinishi bevosita soliqqa oid huquqiy normalarning buzilishi natijasida yuzaga keladi.

Ma'lumki, soliq sohasidagi ma'muriy javobgarlik masalalari qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, odillik, ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga asoslanadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining soliq sohasidagi vazifasini bevosita mazkur prinsiplarga tayangan holda belgilashimiz mumkin. Bu vazifalar soliq munosabatlari sohasida o'rnatilgan ijtimoiy munosabatlarni, inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy adolat hamda qonuniylikni ta'minlash, soliq bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida obyektiv tarzda ko'rib chiqilishini, shuningdek, soliq huquqbuzarliklarining oldini olish, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga hurmat, rioya etish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida ma'muriy javobgarlik tushunchasiga aydinlik kiritilmagan. Unda faqatgina ushbu kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik, basharti bu

huquqbuzarlik o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmasa, amalga oshiriladi, deyish bilangina kifoyalangan.

Ma'muriy javobgarlikka nisbatan bunday yondashish, *birinchidan*, u haqda hech qanday tasavvur hosil qilmaydi, *ikkinchidan*, javobgarlikning bu turini javobgarlikning boshqa turlaridan ajratib olish imkonini bermaydi. Bundan tashqari, Soliq kodeksida "soliqqa oid huquqbuzarlik" tushunchasi keltirilgan bo'lsa-da, "soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik" tushunchasining mazmuniy ifodasi keltirilmagan. *Kodeksda faqatgina soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi sifatida moliyaviy sanksiyalar va ularni qo'llash tartibi bilan kifoyalangan. Fikrimizcha, har ikkala kodeksda ham yuqoridagi tushunchalar o'zining huquqiy ifodasini topishi lozim.*

O'zbekiston Respublikasida soliqqa oid ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik asoslari bevosita O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi hamda boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 264-moddasida nazarda tutilgan normalarda berilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar davlat soliq xizmati organlariga taalluqlidir.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, davlat soliq xizmati organining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boshlig'i, uning o'rinbosari, departament hududiy boshqarmalarining boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, tuman hamda shahar bo'limlarining boshliqlari tegishincha MJtKning 264-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan organlar nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo choralari qo'llashga haqlidirlar.

Masalan, jinoyat ishlari bo'yicha Olmazor tuman sudi tomonidan 2022-yil 8-avgustda bo'lib o'tgan sud majlisida "Gulnora Golden Style" XK rahbari X. Qandimovaga Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan "Yakuniy soliq auditi tekshiruv" natijasiga ko'ra, 2022-yil 28-iyunda tuzilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaga asosan 533 700 so'm aylanmadan olinadigan qo'shimcha soliq hisoblangan. Sud tomonidan ushbu tadbirkor O'zbekiston Respublikasi MJtKning 174-moddasi 1-qismi va 175-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etgan deb topilgan. Unga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 174-moddasi 1-qismiga asosan, ushbu kodeksning 33-moddasini qo'llab, bazaviy hisoblash miqdorining 3 (uch) baravari miqdorida, ya'ni 900 000 so'm jarima jazosi tayinlangan [7].

Fikrimizcha, soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolardan yana biri O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida yuridik shaxslarning ma'muriy javobgarligi nazarda tutilmaganligini qayd etish lozim. *Ammo soliq qonunchiligida yuridik shaxslarning javobgarligi nazarda tutilgan. Shundan kelib chiqib, qonunchilikdagi yuridik shaxslarning ma'muriy javobgarligi bilan bog'liq normalar o'zaro muvofiqlashtirilishi zarur.*

Shunday qilib, soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik barcha soliq to'lovchilar uchun tatbiq qilinadigan umummajburiy qoidalarni buzganlik yoki rioya etmaganlik uchun qo'llanadi. Javobgarlikning mazkur ko'rinishi bevosita soliqqa oid huquqiy normalarning buzilishi natijasida yuzaga keladi.

Bizningcha, soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik – soliq qonunchiligi buzilishi natijasida davlat tomonidan soliq to'lovchiga nisbatan soliqqa oid huquqiy normalarda nazarda tutilgan sanksiyalar belgilanishini o'z ichiga oluvchi majburlov chorasining qo'llanishidir.

Shu o'rinda soliqqa oid ma'muriy huquqbuzarliklarning yuridik tarkibiga ham e'tibor qaratish lozim. Huquqbuzarliklarning umumhuquq nazariyasida e'tirof etilgan tarkibidan kelib chiqib, ularning bir qancha ko'rinishlari mavjuddir.

Soliq solish sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning obyektivi Soliq kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardir. A. Mannonovning fikriga ko'ra, "Soliq solish sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning obyektiv tomoni deyilganda, soliq solish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida sodir etilgan g'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizlik tushuniladi" [8]. Mazkur huquqbuzarliklarning subyektlari esa huquqbuzarlikni sodir etgan va muomala layoqatiga ega bo'lgan javobgarlikka tortiluvchi shaxs hisoblanadi. Soliq kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks normalariga muvofiq, ushbu huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs huquqbuzarlikni sodir etish vaqtida o'n olti yoshga to'lgan bo'lishi lozim.

Soliq solish sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning subyektiv tomoni esa huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi ayblilik darajasidir. Shunday qilib, mazkur yuridik tarkiblar soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy huquqbuzarlikning sodir etilgan yoki sodir etilmaganini va unga nisbatan javobgarlik choralari belgilashda asosiy o'rin tutadi.

Ta'kidlash joizki, amaldagi qonunchilikka muvofiq, shaxs soliq qonunchiligini buzganlik uchun huquqbuzarlik sodir etilgan paytda o'n olti yoshga to'lgan bo'lishi talab etiladi (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 13-moddasi hamda Soliq kodeksining 211-moddasi). Soliqqa oid ma'muriy javobgarlikning subyektlari xususida gap borganida, avvalo, E.T. Xojiyev soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning xususiyatlaridan kelib chiqib, bunda shaxs nafaqat o'n olti yoshga to'lgan bo'lishi, balki qonun hujjatlari bilan unga soliq va boshqa to'lovlarni to'lash majburiyati ham yuklangan bo'lishi, mazkur huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs o'z xatti-harakatlari oqibatini tushuna olishi, ya'ni aqli raso bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tgan [9].

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yuridik shaxslarning ma'muriy javobgarligi nazarda tutilmagan. Ammo O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 212-moddasiga ko'ra, yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi uchun tegishli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, uning mansabdor shaxslarini ma'muriy, jinoiy va boshqa javobgarlikdan ozod etmasligi belgilangan.

Umuman olganda, soliq sohasida sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlikda uning xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, sodir etilgan

huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar hisobga olinadi. Ammo amaliyotda ayrim normalar bo'yicha moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklarni aniqlash va ular bo'yicha ish yuritishda muddatlar bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmoqda. Ya'ni soliqlar va yig'imlarni to'lashdan bo'yin tovlash, soliq solinadigan obyektlarning hisobini olib bormaslik, buxgalteriya hisobotlarini yuritish bilan bog'liq bo'lgan boshqa huquqbuzarliklar faqat xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik faoliyati tekshirilganda aniqlanadi.

Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkazilayotgan taftish yoki tekshirishlarda o'rganish uchun to'liq moliya hisobot yillari olinadi va shuning oqibatida yuqorida bayon etilgan huquqbuzarliklar soliq to'lovchining oldingi yillardagi faoliyati bo'yicha aniqlanadi, lekin o'sha davrdagi huquqbuzarlik sodir etilgan kundan ancha vaqt o'tgan bo'ladi.

Huquqni qo'llash amaliyotida savdo, tadbirkorlik va moliya sohasidagi huquqbuzarliklarni aniqlash, ular bo'yicha ish yuritishda ba'zan savdo shoxobchalarida yakka tartibdagi tadbirkorning yollanma xodimi yoki yuridik shaxs xodimi tomonidan xaridorlarga savdo faoliyatini amalga oshirishda nazorat kassa mashinasi cheki yoki unga tenglashtirilgan kvitansiyalarning berilmasligi, tovarlarni ustama narxlar asosida sotish, to'lov terminallari orqali savdo qilishni rad etish kabi holatlari uchraydi. Bunda huquqbuzarlik yakka tartibdagi tadbirkorning yollanma xodimi yoki yuridik shaxsning xodimi tomonidan sodir etilsa-da, amaliyotda ushbu huquqbuzarliklar yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbarining nazoratsizligi oqibatida yuzaga kelgani e'tiborga olinib, qo'shimcha ravishda yakka tartibdagi tadbirkorning o'ziga ham, yuridik shaxsning rahbariga nisbatan ham O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 164-moddasi (Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish) asosida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma rasmiylashtirilib, sudlar tomonidan jazo choralari qo'llanmoqda.

Joriy etilgan tartibga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 164-moddasi (Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish) dispozitsiyasi savdo va xizmat ko'rsatish qoidalarini buzishdir, ammo bunday huquqbuzarlikning sodir etilishida yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbarining nazoratsizligi ham savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish hisoblanmaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 75-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarining 19-bobida savdo qoidalarini buzish turlari keltirilgan bo'lib, bunda yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbari o'z qo'l ostidagi xodimlarni nazorat qilmasligi haqida so'z yuritilmagan.

Xulosa

Qonunchilikdagi mazkur bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni berish o'rinli deb hisoblaymiz:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O‘zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 75-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarining 189-bandini “*Yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbarining o‘z bo‘ysunuvidagi xodim tomonidan ushbu savdo qoidalariga rioya qilinishini ta‘minlamasligi*” jumlasini bilan;

ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarining 190-bandini “*Savdo qoidalari yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbarining nazoratsizligi oqibatida uning bo‘ysunuvidagi xodim tomonidan buzilganda qo‘llanadi*” jumlasini bilan;

uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 164-moddasi (Savdo yoki xizmat ko‘rsatish qoidalarini buzish)ni esa “*Savdo qoidalarining buzilishi yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbarining nazoratsizligi oqibatida yuzaga kelganda, yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbariga nisbatan qo‘llanadi*” tarzidagi alohida qism bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq.

Mazkur taklif huquqni qo‘llash amaliyotida yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbarlari va ularning xodimlari tomonidan savdo sohasida sodir etib kelinayotgan huquqbuzarliklarning obyektiv ko‘rib chiqilishi, unda ayb uchun javobgarlik prinsipiga amal qilishda vujudga kelayotgan muammolarning bartaraf etilishiga yordam beradi.

O‘z navbatida, aytish lozimki, O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 36-moddasida belgilab berilgan “Ma‘muriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab bir yildan kechiktirmay qo‘llanishi mumkin” degan normada bevosita soliq va valyuta to‘g‘risidagi qonunchilik hamda moliya-xo‘jalik, buxgalteriya, moliya, statistika, bankka oid huquqbuzarliklar uchun belgilanishi kerak bo‘lgan javobgarlik aniq ochib berilmagan. Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning tegishli moddalarida belgilangan soliqlar va boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash, soliq solinadigan obyektlarning hisobini olib bormaslik va shu kabi buxgalteriya hisobotlari bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa huquqbuzarliklar faqat xo‘jalik yurituvchi subyektning moliya-xo‘jalik faoliyati tekshirilganda aniqlanadi. Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o‘tkazilayotgan taftish yoki tekshirishlarda o‘rganish uchun to‘liq moliya hisobot yillari olinadi va oqibatda yuqorida bayon qilingan ma‘muriy jazo qo‘llanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 36-moddasini quyidagicha talqin qilish maqsadga muvofiqdir: “Ma‘muriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, *moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan va davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab bir yildan kechiktirmay qo‘llanishi mumkin*”.

REFERENCES

1. Alm J., Torgler B. Culture Differences and Tax Morale in the United States and in Europe CREMA (2003, July). *Working Paper*, 2004, p. 14. Available at: <http://ssrn.com/abstract=562861>
2. Starilov Y.N. Otvetstvennost' za narusheniya nalogovogo zakonodatel'stva [Responsibility for violations of tax legislation]. Moscow, BEK Publ., 1996, pp. 494–495.
3. Abduqodirov Sh. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar va uni yanada takomillashtirish istiqbollari [Reforms of the legislation on administrative responsibility and prospects for its further improvement]. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Axborotnomasi – Bulletin of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan*, 2013, no. 5, pp. 14–15.
4. Xojiyev E.T. Soliq sohasidagi ma'muriy javobgarlik [Administrative responsibility in the field of taxation]. Proceedings of the scientific-practical conference. Tashkent, TSUL, 2010, p. 37.
5. Perekrestova L.V., Vasil'yeva M.V., Chukhnina G.Ya. Mery po presecheniyu nalogovoykh prestupleniy i ukloneniya ot uplaty nalogov grazhdanami [Measures to suppress tax crimes and tax evasion by citizens]. *Finance and Credit*, 2013, April, vol. 15 (543), pp. 47–62.
6. Berdiyarov R.T., Qurbonov Z.N. Soliq huquqi [Tax law]. Tashkent, Yurist-media, 2010., pp. 240–242.
7. Archive materials of the Almazar district criminal court on criminal cases.
8. Mannonov A. Soliq solish sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning ayrim jihatlari [Some aspects of administrative offenses in the field of taxation]. *Oliy xo'jalik sudi Axborotnomasi – Bulletin of the Supreme Economic Court*, 2009, no. 1, p. 25.
9. Xojiyev E.T. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik [Legal liability for violation of tax legislation]. Tashkent, 2006, p. 102.
10. Taken from the materials of the case No. 7-1601-2022/4275 of the Uchtepa District Criminal Court of Tashkent city dated July 19, 2022.
11. Belousova S.S. Ugolovnaya otvetstvennost' za ukloneniye ot uplaty nalogov [Criminal liability for tax evasion]. Moscow, 1996, p. 92.
12. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Special part. Tashkent, Ilm Ziya Publ., 2006, 395 p.
13. Mahkamov O. Soliq yoki yig'imlar uni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyati haqida [About the crime of evasion of taxes or fees]. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Axborotnomasi – Bulletin of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan*, 2010, no. 6, p. 43.
14. Krokhina Yu.A. Otvetstvennost' za narusheniya nalogovogo zakonodatel'stva: kontseptsiya, stadiya i mekhanizm realizatsii [Responsibility for violations of tax legislation: concept, stage and mechanism of implementation.]. *Economics and Law*, 2003, no. 5, pp. 102–111.
15. Mudrykh V.V. Otvetstvennost' za narusheniya nalovogo zakonodatel'stva [Responsibility for violations of tax laws]. Moscow, Yunitidana Publ., 2001, pp. 128–131.

KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2024-yil 1-son

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.4.1.

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BOSH MUHARRIR:

N. Salayev

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR:

S. Samadov

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'i v.v.b.

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

D. Bazarova

TDYU Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar doktori, professor.

Mas'ul muharrir: K. Hakimov

Muharrirlar: Y. Mahmudov, M. Sharifova, Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1386.

Jurnal 2024-yil 26-martda bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i: 9,3.

Adadi: 30. Buyurtma: № 39.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

ISSN 2181-2179

Toshkent davlat yuridik universiteti ©